



BIR MAQOLOL IBRATI

Erkinova Madinaxon Umid qizi,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207442>

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning axloqiy-ta’limiy qarashlari xususida mulohazalar bildirilgan. Xamsaning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dagi o‘n yettinchi maqolat tahlilga tortilgan. Maqolatdagi Navoiyning ta’lim-tarbiya, yoshlar tarbiyasiga oid nazariy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Xuroson, Hirot, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, ta’lim, tarbiya, yoshlar.

Xamsaning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dagi o‘n yettinchi maqolat “Bahor yigitligi nazohatidakim, rayhoni noz parvardlarin mulavvan xullalar bila orosta qilur. Va yigitlik bahori latofatidakim, rayhoni xat bila oraz gulin gul-u rayhong‘a o‘t solg‘udek perosta etar. Va xazon qarilig‘i burumatidakim, guliston ashjori bila qushlari ondin be barg-u navo durur. Va qariliq xazoni shiddatidakim, badan gulistonining toza gullari andin barbod-u havo” deb nomlanadi. Navoiy har bir faslning o‘ziga xos go‘zalligini ta’riflashdan oldin quyosh hamal burjiga kirgach, falak olamga o‘z mehribonligini zohir aylashiga ishora qiladi:

Chun hamal ayvonini yorutti mehr,
Dahrg‘a mehr ayladi zohir sipehr [1:299].

Navoiyning mazkur ta’riflari XIII asr oxirida yashab ijod etgan Nosiriddin Rabg‘uziyning quyidagi misralariga hamohang.

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam Navro‘zi
Kechti Baxman zamharir qish, qolmadi, qori buzi [3:171].

Dostondagi har bir maqolot mavzu va mazmun jihatidan bir biriga bog‘langan bo‘lib, Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. “O‘n yettinchi maqolat umrning ikki asosiy bosqichi hisoblanmish yoshlik va qarilik haqida. Bu maqolatda ham Navoiy falsafiy mushohadakorlik bilan so‘zni bog‘ tasviridan boshlab, ko‘klam, yoz, xazon va qish fasllaridagi peyzajni katta mahorat bilan chizadi. Keyingi baytlarda esa, inson umrini xuddi shu holatga qiyoslab, olamdagi barcha narsa kabi inson umri ham zavol topishi muqarrarligini shoirona tilda ifodalaydi. Shu sababli, deyarli har bir maqolatda qayta-qayta ta’kidlangan – umrni g‘animat deb bilish hamda uni bekorga o‘tkazmaslik g‘oyasi bu maqolatda yanada o‘tkirroq mohiyat kasb etgan” [4:94].

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Hazrat Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya ruhidagi insonparvarlik qarashlari oradan necha asrlar o‘tganiga qaramasdan o‘z qimmatini va ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, Navoiyning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari bugungi kunga kelib, har qachongidan ham ravshanlashib, tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’nodan Alisher Navoiyning ta’limiy qarashlarini bugungi kunning barcha fan sohalariga asos bo‘lganini ko‘rish mumkin. Xususan, badiiy adabiyot, tilshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, tarix, umumiy pedagogika, falsafa, didaktika kabilar.

Aytish mumkinki, ulug‘ shoirning barcha asarlarida ta’lim va tarbiyaga oid qarashlar ilgari surilgan. Shu ma’nodan buyuk beshlik “Xamsa” asari axloqiy-ta’limiy, irfoniy, falsafiy mushohadalarni o‘zida jamlagan adabiy manba hisoblanadi. “Hayrat ul-abror”ning o‘n yettinchi maqolatida inson umri to‘rt faslga qiyoslangan. Ya’ni Alisher Navoiy yoshlikni bahorga, yigitlik davrini yozga, o‘rta yosh davrini kuzga hamda qarilikni qishga o‘xshatadi.

Mag‘zig‘a solg‘uncha xirad sha‘mi nur,
Ko‘ngliga tushguncha xiraddin shuur
Toza niholi bo‘lubon sarbaland,
Soda dimog‘i bo‘lubon xushmand,
Anglab anikim, yuzi gulrang erur,
G‘amzasi xunrez-u ko‘zi shang erur [1:305].
Bog‘ shugufa bila gul tark etib,
Barg bila mevag‘a navbat yetib.
Hiffatidin ta‘b nufur aylabon,
Hilm ila idrok zuhur aylabon.
Yuz ming esa jahl-u xato xirmani,
Mash‘alai ilm kul aylab bani.
Gulshani hil‘atda bo‘lub har shajar,
Ilm-u adab mevasidan borvar [1:306].
Ikki bukulgan qaddu maddi aso,
Charxi nigun birla xati istivo.
Qolmay og‘iz durjida durri,
Tishlari “sin”, lek kashish birla.
Og‘iz o‘lub durj, vale donasiz,
Tishlar o‘lub “sin”, vale donasiz [1:307].
Bir necha kun ham bu sifat jon chekib,

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Qon yutub-u nolai xirmon chekib.

Toki ajal qosidi farmon chog‘i,

Tindurubon ko‘nglini andin dog‘i [1:308].

Navoiy ta’kidlaganidek, inson umrining har oni bo‘laklarga bo‘lib qo‘yilgan. Zero, har biri bir narsaga mo‘ljallangan: o‘n yoshgacha- erkin hayot kechirishga, yigirmagacha- bilimsizlig-u mastlik bilan band bo‘lish mumkin. O‘ttiz bilan qirq ichida aysh qilish. Inson ellik yoshga borganida taraqqiy qilishi mumkin emas.

Umr kuning qismat etibtur qazo,

Har chog‘i bir ishga qilur iqtizo.

O‘ng‘acha g‘aflat bila pobastliq.

Jahl yigirmigacha mastliq

O‘ttuzu qirq ichra erur aysh-u kom,

Vahki manga ul dog‘i erdi harom [1:309].

Alisher Navoiyning o‘z davridagi bunday falsafiy qarashlari bugungi zamon bilan hamnafas. Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, har bir insonning yoshligida ilm olishi afzal sanaladi. Agar inson o‘z vaqtida ilmni egallamasa, yoshi o‘tgan sari ilm olishga bo‘lgan ehtiyoji kamayib boradi. Xalqimiz orasida keng tarqalgan “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh kabidir” maqoliga shu o‘rinda tayanish mumkin. Fan va texnika shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda yoshlar qalbida ilm olishga muhabbatni shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Zero, komil shaxsni voyaga yetkazishda ajdodlarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning o‘rni va ahamiyati katta. Alisher Navoiyning maqolot davomida bayon etilgan falsafiy mushohadalarini amaliyotga qo‘llash bugungi avlodning dasturul amali, bosh mayog‘i bo‘lishi darkor, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 7 tom. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 422.
2. Hojiahmetov A. Xamsa. Hayrat ul-abror. –Toshkent: Sharq, 2016. –B. 336.
3. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. 1-kitob. -Toshkent: Yulduzcha, 1993.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. –B. 520.